|                                                                                                                                            |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Тенденции развития пищевой промышленности Узбекистана.....                                                                                 | 503 |
| <b>Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна</b>                                                                      |     |
| Soliq-bojxona siyosatining dolzarb masalalari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari.....                                               | 509 |
| <b>Usmonov Kaxramonjon Akbaraliyevich</b>                                                                                                  |     |
| Статистический анализ факторов, влияющих на бренд молока и молочных продуктов в Узбекистане                                                | 513 |
| <b>Холдарова Фариза Тухтабаевна</b>                                                                                                        |     |
| Правовое регулирование рынка цифровых активов и криптовалют.....                                                                           | 519 |
| <b>Якубова Ш. Ш., Рашидов Рахимжон Искандарович</b>                                                                                        |     |
| Efficiency of Internal Audit Service and Report Improvement: Control of Sanatorium-Wellness Institution .....                              | 528 |
| <b>Shafkarov Fahriddin Khudaiberdievich</b>                                                                                                |     |
| Development of Digital TV Services in the Conditions of Digitalization of the Economy.....                                                 | 534 |
| <b>Farhad Karimov</b>                                                                                                                      |     |
| Kichik biznes faoliyatida muhim muvaffaqiyat omillarini belgilashning ahamiyati va ularni baholash.....                                    | 538 |
| <b>Kabulova Nurg'o'zal Umirbek qizi</b>                                                                                                    |     |
| Barqaror iqtisodiy o'sishni ekonometrik tadqiq etish.....                                                                                  | 541 |
| <b>Muminova Maxbuba Abduvafayevna</b>                                                                                                      |     |
| Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini baholash.....                                                                   | 548 |
| <b>Musurmonova Mahbuba Omonovna</b>                                                                                                        |     |
| Tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini ichki tartibga solishni takomillashtirishning ayrim jihatlari..                          | 552 |
| <b>To'rayev Nurbek Muxammadovich</b>                                                                                                       |     |
| Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili.....                                             | 557 |
| <b>Raxmonov G'ayrat Ismatulloyevich</b>                                                                                                    |     |
| Strategik boshqaruv hisobi va uning uslubiyotini takomillashtirish masalalari.....                                                         | 562 |
| <b>Sharipova Shoxida Abdinabiyeвна</b>                                                                                                     |     |
| O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari.....                                       | 567 |
| <b>Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li</b>                                                                                                      |     |
| Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning kontseptual jihatlari .....                                                       | 574 |
| <b>Sultanov Maxmud Axmedovich</b>                                                                                                          |     |
| Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning ayrim me'yoriy-huquqiy asoslari .....                                                       | 578 |
| <b>Turanov M. Sh.</b>                                                                                                                      |     |
| O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida tijorat banklarining o'rni.....                                                   | 586 |
| <b>Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Zubaydullayeva Zulayxo Karimovna, Kaxarova Dildora Erkinovna</b> |     |
| O'zbekistonda tayyor kiyimlar bozori ko'lamini oshirishda marketing strategiyalarining samaradorligi.....                                  | 596 |
| <b>Urazov Mansur Musurmanovich</b>                                                                                                         |     |
| Yevropaga barqaror eksport va qishloq xo'jaligida yashil rivojlanish uchun                                                                 |     |
| Mosh bozori strategiyalarining ta'sirini baholash .....                                                                                    | 599 |
| <b>Valiyeva Aziza Anvar qizi</b>                                                                                                           |     |
| Rangli tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonlarini paralellashtirish .....                                                             | 605 |
| <b>Xidirova Barchinoy Ilxomovna</b>                                                                                                        |     |
| Korxonalarda ishchi personal ehtiyojlarini motivatsiyaga ta'siri .....                                                                     | 610 |
| <b>Aripov Oybek Abdullayevich, Axmedov Muzaffar Shokirjonovich</b>                                                                         |     |
| Цифровые и традиционные методы сбора информации в                                                                                          |     |
| маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ .....                                                                                    | 615 |
| <b>Бекназова Комилахон Миркамол кизи</b>                                                                                                   |     |
| Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida kichik biznes sektori rivojlanishining imkoniyatlari.....                                 | 623 |
| <b>Botirova R. A., Sirojiddinov I. Q.</b>                                                                                                  |     |
| Positioning Textile Products in Competitive Strategy .....                                                                                 | 626 |
| <b>Икрамова Нодира Бурхон кизи</b>                                                                                                         |     |



|                                                                                                                            |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Sanoatni tarkibiy o'zgarishlar asosida maqbullashtirish va samaradorlik ko'rsatkichlarini prognozlash.....                 | 631 |
| <b>Kasimov Azamat Abdukarimovich</b>                                                                                       |     |
| O'zbekiston Respublikasi budgetini shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi .....                  | 638 |
| <b>Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna</b>                                                                                 |     |
| To'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini boshqarish masalalari.....                                                  | 645 |
| <b>Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich</b>                                                                            |     |
| Влияние плодородности почвы на урожайность хлопчатника в хлопково-текстильных кластерах<br>Республики Каракалпакстан ..... | 650 |
| <b>Сагиева Молдир Оразбай кизи</b>                                                                                         |     |



# INSTITUTIONAL INVESTORLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING KONTSEPTUAL JIHATLARI

**Sultanov Maxmud Axmedovich**

TDIU To'rtko'l fakulteti,

“Mutaxassislik, ijtimoiy gumanitar va aniq fanlar” kafedrası dotsenti

**Annotatsiya:** Maqolada institutsional investorlarning turlari va ular faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini xorijiy olimlar xulosalari negizida tizimli ravishda tahlil qilingan. Shuningdek, institutsional investorlar hisoblangan sug'urta kompaniyasi, pay fondlari va investitsiya trastlari kabi investitsiyalash institutlari faoliyatining farqli, strategik hamda uzoq muddatli yondashuvga asoslangan konseptual jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** institutsional investorlar, pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyasi, suveren fondlar, strategik aktivlarni taqsimlash, markaziy banklar, IPS, ESP, ekspertiza.

**Abstract:** The article systematically analyzes the types of institutional investors and conceptual aspects of organizing their activities based on the findings of foreign scientists. Special attention is also given to various strategic and conceptual aspects of investment institutions considered by institutional investors, such as insurance companies, mutual funds and investment trusts, based on a long-term approach.

**Key words:** institutional investors, pension funds, insurance companies, sovereign wealth funds, strategic asset allocations, central banks, IPS, ESP, expertise.

**Аннотация:** В статье систематически анализированы типы институциональных инвесторов и концептуальные аспекты организации их деятельности на основе выводов зарубежных ученых. Особое внимание также уделяется различным стратегическим и концептуальным аспектам инвестиционных институтов, которые считаются институциональными инвесторами, таких как страховые компании, взаимные фонды и инвестиционные трасты, на основе долгосрочного подхода.

**Ключевые слова:** институциональные инвесторы, пенсионные фонды, страховые компании, суверенные фонды, распределения стратегических активов, центральные банки, IPS, ESP, экспертиза.

## KIRISH

Institutsional investorlar taraqqiyoti aholi omonatlari va jamg'armalarini qimmatli qog'ozlarga uzoq muddatli investitsiyalash maqsadlari uchun jamlashga, shu orqali iqtisodiyot real sektori korxonalarida ishlab chiqarish resurslarini yangilash va ko'paytirishga xizmat qiladi. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida yetarli malaka va ko'nikmalari kamligi tufayli, investitsion qaror qabul qilish va mablag'larni boshqarishda professional mutaxassislar sanalgan investitsion vositachilar, jumladan, institutsional investorlarga bo'lgan zarurat yuzaga kelgan.

Fond bozori rivojlangan xorijiy davlatlarda bunday investitsion vositachilar, investorlar va aholining keng qatlamini qimmatli qog'ozlar bozoriga kirishiga imkoniyat yaratib, jamg'armalarni shakllantirish, ularni ko'paytirishga muqobil imkoniyatlar yaratish, investitsiyalar diversifikatsiyasi va investitsiya portfelini boshqarish kabi funktsiyalarni samarali bajaradi. Bunday institutsional investorlar respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida ya'ni iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish uchun davlat ulushini kamaytirishga qaratilgan muhim tadbirlar, ya'ni “O'zbekiston–2030” strategiyasi doirasida “Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish” maqsadida “xususiy lashtirilayotgan davlat aktivlari to'g'risida taqdimot materiallarini tayyorlash”<sup>[1]</sup>da faol qatnashish orqali moliya sektorini rivojlantirishga, pirovardida milliy fond bozorimizning halqaro moliya institutlari bilan integratsiyalashuvda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning kontseptual jihatlarini takomillashtirish davr talabi hisoblanadi.

Adabiyotlar sharxi. Bugungi kunda moliya bozori orqali aholi ixtiyorida saqlanayotgan mablag'larni jalb qilishda mamlakatimizdagi faoliyat yuritayotgan institutsional investorlar turlari va ular faoliyatini tashkil etish-



ning kontseptual jihatlarini takomillashtirishda xorijiy olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Institut-sional investorlar faoliyatini tashkil etishning kontseptual jihatlarini ko'p qirralidir. Xorijlik olimlar S. Fillinger va R. Tomas<sup>[2]</sup> tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shaxsiy investitsiya portfellarini boshqarishda va korporatsiyalarda agentlik xarajatlarini kamaytirishda institutsional investorlarning rolini ta'kidlaydi. Gond va Piani institutsional investorlarning korporatsiyalarga jamoaviy jalb qilish orqali qanday ta'sir qilishini tahlil qilib, mas'uliyatli investitsiya tamoyillari tashabbusi kabi tashkiliy platformalarning muhimligini ta'kidlagan<sup>[3]</sup>. Yevropalik iqtisodchi olim Foleyning fikricha institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishda tartibga solish va liberallashtirish natijasida moliyaviy institutlar uchun bozor chegaralarining yemirilishi, bu raqobatning kuchayishiga va xizmatlarning diversifikatsiyasiga olib kelishini muhokama qiladi<sup>[4]</sup>.

Mamlaktimizda institutsional investorlar turlari va ular faoliyatini tashkil etishning kontseptual jihatlarini takomillashtirishga doir tadqiqotlarning kamligi, milliy qimmatli qog'ozlar (fond) bozorining talab darajasida rivojlanmaganligi hamda mahalliy olimlar tomonidan bu sohada ilmiy izlanishlarning olib borish sust kechishi bilan izohlanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Institut-sional investorlar samaradorlik ko'rsatkichlarini prognozlash bo'yicha empirik tadqiqotlar hamda nazariy qarashlar o'rganilgan. Tadqiqotda empirik va nazariy jihatdan tahlil va sintez, deduksiya va induksiya, jadval, grafik, ekonometrik modellashirish usullaridan, shuningdek mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlar ishlaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI


Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etish va investitsiya portfellarini samarali boshqarishni ta'minlash turli jarayonlar, strategiyalar va mulohazalarni o'z ichiga oladi. Pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari, suveren fondlar va aktivlarni boshqarish kompaniyalari kabi institutsional investorlar global moliyaviy jarayonlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chet el ilmiy nashrlarida xorijiy olimlar tomonidan institutsional investorlar faoliyatini tashkil etish bo'yicha tadqiqot natijalarida ko'plab mulohaza va tavsiyalar berilgan. Jumladan: R. Callis va C. Jordan fikriga ko'ra "korporativ tuzilmalar jamoat manfaatlariga ega bo'lgan xususiy shaxslar bo'lib, ularning ahamiyati global miqyosida e'tirof etilgan"<sup>[5]</sup>. N. P. Kuznetsovaning jamoasi esa, "institut-sional investorlar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asosiy ishtirokchilari hisoblanadi" – degan fikrga kelishgan<sup>[7]</sup>. M., Kaldowski va T. Jewartowski Polsha davlati moliya bozori xususiyatlarini inobatga olgan holda "institut-sional investorlar jahon bozorlarida, shu jumladan rivojlanib borayotgan Varshava fond birjasida ham sezilarli ishtirokiga ega hamda ularning uzoq muddatga egalik qilishi kompaniyalarning to'lov siyosatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi"<sup>[8]</sup> – degan xulosaga kelishgan. T. J. Chemmanur, G. Hu va K. Wei lar "institut-sional investorlar korporatsiyalarning asosiy aktsiyadorlari bo'lib, korporativ moliyalashtirishning turli jihatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi"<sup>[9]</sup> - deb hisoblashgan. Shu bilan birga V. Miletić va D. Simić "ular qimmatli qog'ozlarga qo'ygan mablag'lari orqali moliya bozori va milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shadi"<sup>[10]</sup> - deb institutsional investorlar faoliyatining asosiy maqsadiga urg'u berishgan.

Shunday ekan, institutsional investorlarning xususiyatli jihatlarini, ularning investitsiya maqsadlariga va tashkiliy tuzilmalarga ega bo'lgan turli xil sub'ektlar guruhini o'z ichiga olishidadir. Shu bois, investitsiyalarni samarali boshqarish uchun institutsional investorlar turlari va faoliyatini tashkil etishning asosiy kontseptual jihatlarini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. (1-rasmga qarang).

Jahon moliya bozorida milliy iqtisodiyotining rivojlanish darajasidan kelib chiqib institutsional investorlar quyidagi turlar va toifalariga bo'linishi hamda faoliyatini tashkil etishning asosiy konseptual jihatlarini farqlanishi mumkin.

Pensiya jamg'armalari institutsional investor sifatida taraqqiy etgan davlatlar, jumladan anglo-sakson davlatlari moliya bozorida keng tarqalgan bo'lib, barqaror investitsiya strategiyalariga va nafaqaxo'rlar oldidagi yuqori ishonchga ega strategik, uzoq muddatli yondashuvga rioya qiladigan kontseptual jihatlariga amal qiladi. Pensiya jamg'armasi vasiylari tomonidan ishonchli majburiyatlarni talqin qilish, ularning korporativ boshqaruv va ishtirok etishiga bo'lgan yondashuvlarini shakllantirib, boshqaruv kodeksini qo'llashning murakkabligidan dalolat beradi.

Sug'urta kompaniyalarga t'lluqli kontseptual jihatlar risklarni boshqarish, moliyaviy strategiyalar, normativ hujjatlarga rioya qilish va jamiyat mas'uliyatining murakkab o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi. Sug'urtaga doir me'yoriy xuquqiy asoslar va tegishli sud doktrinolari sug'urta qonunchiligining boshqaruv tamoyillari, siyosati, qadriyatlarini baholaydi va sug'urtani davlat siyosatining asosiy masalalari bilan bog'laydi. Sug'urta kompaniyalari ichki va tashqi ijtimoiy javobgarlik choralari orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim rol o'ynaydi va bu kompaniya hamda vajamiyat uchun ijobiy oqibatlarga olib keladi.



1-rasm: Institutsional investorlarning turlari va faoliyatini tashkil etishning asosiy kontseptual jihatlari<sup>1</sup>

Suveren fondlar davlatga qarashli investitsiya fondlari bo'lib, ular davlat boyliklarini zaxiralar, ortiqcha daromadlar yoki tovar boyliklari hisobidan boshqaradi. Suveren fondlari valyuta zaxiralarini samarali boshqarish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, pensiya islohoti, makroiqtisodiy barqarorlashtirish va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jalb qilish hisoblanadi. Suveren fondlari mablag'larini geografik va aktivlar sinflari bo'yicha ajratgan holda, asosiy e'tiborini xususiy kapitalni moliyalashtirishga qaratadi.

Muvofiqlik va huquqiy-me'yoriy hujjatlarga rioya qilish subyektlarning mas'uliyatli va axloqiy faoliyati uchun asosdir. Muvofiqlikka faol yondashuv xo'jalik subyektlari uchun juda muhimdir, chunki bu ularni nafaqat huquqiy va obro' e'tiborga oid tuzoqlardan himoya qiladi, balki o'z sohalarida axloqiy yetakchi ekanligini ham bildiradi. Muvofiqlikni boshqarish tizimlari tashkilotlarning huquqiy-me'yoriy talablarga javob berishini va o'z maqsadlariga erishishini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

Pay fondlari va investitsion trastlar investorlarga diversifikatsiya va professional boshqaruvga erishish uchun alohida imkoniyatlarni taidim etadi. Ushbu investitsiya vositachilari bir nechta investorlarning pullarini birlashtiradi va ularni qimmatli qog'ozlar portfeliga investitsiya qiladi.

Strategik aktivlarni taqsimlash riskni boshqarishda uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarga erishish uchun portfel ichidagi aktivlar sinflarining optimal aralashmasini aniqlashni o'z ichiga oladi. Aktivlarni taqsimlashning ushbu strategik yondashuvi investorlar va portfel menejerlariga yaxshi muvozanatlangan, diversifikatsiyalangan portfollarni yaratishda rahbarlik qiluvchi asosiy tamoyillarga asoslanadi.

Xususiy kapital kompaniyalari investitsiyalarni boshqarishning boshqa shakllaridan ajralib turadigan dinamik va strategik asosda ishlaydi. Ushbu kompaniyalar ma'lum vaqt oralig'ida daromadlarni jamlash va likvidlikni oshirish, sotib olingan firmalarning soliqqa tortiladigan daromadlarini kamaytirish uchun leveredj xaridlardan foydalanadi. Xususiy kapitalning kontseptual jihatlar faol boshqaruv, qiymat yaratish, shu bilan birga uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish uchun kengroq iqtisodiyotga ta'siri hamda ular investitsiya kiritgan kompaniyalarning evolyutsiyasiga yordam beradi.

Markaziy bank faoliyatining kontseptual jihatlar ushbu institutlarning harakatlarini tartibga soladigan keng qamrovli asosni tashkil qiladi. Markaziy banklar inflyatsiya kutilmalarini ta'minlashda samarali ekanligi isbotlangan iqtisodiy istiqbolga oid noaniqlik haqidagi yangiliklarni e'lon qilishni o'z ichiga olgan keng qamrovli aloqa strategiyasini qabul qildi.

1 Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan



Investitsiya siyosati bayonoti (IPS)ning konseptual jihatlari investitsiyalarni oqilona va intizomli boshqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Investitsiya siyosati bayonoti portfel nazariyasini portfelni boshqarish bilan bog'laydigan vosita bo'lib, investitsiya faoliyati bilan bog'liq ma'muriy qarorlarni qabul qilish uchun asos yaratadi. Unda portfel nazariyasi va aktivlar bahosining yangi g'oyalarini o'z ichiga olgan investitsiya qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish tamoyillari va usullari ko'rsatilgan bo'ladi.

Strategik aktivlarni taqsimlash investorning moliyaviy maqsadlari, xavf-xatarlarga chidamliligi va uzoq muddatli istiqbolini hisobga olgan holda portfel yaratilishiga yaxlit yondashuvdir. Bu risk va foydani muvozanatlash uchun aktivlarning optimal aralashmasini aniqlashni o'zichiga oladi. Bunga turli yondashuvlar, jumladan klassik samarali bozor gipotezasi hamda matematik va kompyuter modellashtirishdan foydalanish orqali erishish mumkin.

Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishda ekspertizaning konseptual jihatlari ko'p qirralidir. Ushbu jihatlar shaxsiy investitsiya portfellarini boshqarishda va korporatsiyalarda agentlik xarajatlarini kamaytirishda institutsional investorlarning roli, institutsional investorlarning korporatsiyalarga jamoaviy jalb qilish orqali qanday ta'sir qilishini tahlil qilish va mas'uliyatli investitsiya tamoyillari tashabbusi kabi tashkiliy platformalarning muhimligini asoslaydilar.

Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishda ESG integratsiyasining konseptual jihatlari mas'uliyatli investitsiyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv, kompaniya yoki biznesga investitsiyalarning barqarorligi hamda ijtimoiy ta'sirini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jihatlar orqali atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv omillarining moliyaviy ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligini tan olgan holda, institutsional investorlar ko'proq asosli qarorlar qabul qilishlari, risklarni boshqarish amaliyotini yaxshilashlari va barqaror, uzoq muddatli qiymat yaratishga hissa qo'shishlari mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLLAR

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, institutsional investorlar faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish va faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari aniqlash orqali investitsiya samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli omillar xo'jalik subyektlarining umumiy maqsad va vazifalariga muvofiqlashtirishga qaratilgan kompleks va moslashuvchan yondashuvni o'z ichiga oladi. Faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarni takomillashtirishda quyidagi tavsiyalardan foydalanish mumkin:

1. Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv omillarining moliyaviy ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligini tan olgan holda, institutsional investorlar ko'proq asosli qarorlar qabul qilishlari, risklarni boshqarish amaliyotini yaxshilashlari va barqaror, uzoq muddatli qiymat yaratishga hissa qo'shishlari lozim.
2. Investitsiya siyosati bayonoti (IPS) portfel nazariyasi va aktivlar bahosining yangi g'oyalarini o'z ichiga olgan investitsiya qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish tamoyillarini ham o'z ichiga olishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Fillinger C. Exploring the Notions of Investment Expertise and Strategies :дис. – University of Gloucestershire, 2017.
3. Thomas R. S. The evolving role of institutional investors in corporate governance and corporate litigation //Vand. L. Rev. – 2008. – T. 61. – C. 299.
4. Gond J. P., Piani V. Enabling institutional investors' collective action: The role of the principles for responsible investment initiative //Business & Society. – 2013. – T. 52. – №. 1. – C. 64-104.
5. Foley B. J., Foley B. J. The Institutional Investors //Capital Markets. – 1991. – C. 174-195.
6. Callis R., Jordan C. Institutional investors: at the crossroads of intermediation and corporate governance //Research Handbook on Global Capital Markets Law. – Edward Elgar Publishing, 2023. – C. 286-300.
7. Kuznetsova N. P. Institutional Investors in the Green Transformation of Modern Financial Markets. Financial Engineering and Risk Management (2022) Clausius Scientific Press, Canada.
8. Kaldoniski M., Jewartowski T. 12 Institutional investor horizon and payout policies //Understanding the Polish Capital Market: From Emerging to Developed. – 2022. – T. 46. – №. 10. – C. 213.
9. Chemmanur T. J., Hu G., Wei K. C. John. The role of institutional investors in corporate and entrepreneurial finance // Journal of Corporate Finance. – 2021. – T. 66. – C. 101833.
10. Miletić V., Simić D.. Značaj institucionalnih investitora u razvoju finansijskog tržišta kao mjerodavnog pokazatelja razvijenosti nacionalne privrede //Zbornik radova EkonBiz. – 2018. – C. 236-246.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 5**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.